



TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Ramazonova Dinara Bahodir qizi

f.sobirova@uzswlu.uz

Sobirova Feruza Islomjon qizi

Uzbek State World Languages University

Annontatsiya: Ushbu maqola talabalarda tanqidiy fikrlash usullarini o'rganadi. Unda turli xil muhokamalar, ta'limga yo'naltirilgan loyihalar va savollar berish mashg'ulotlari ko'rib chiqiladi. O'qituvchilar va yaxshi ta'lim muhiti o'quvchining fikrlashini yaxshilashga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarni mustaqil bo'lishga, yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi va hayotdagi turli muammolarga yechim topishga undaydi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, ta'lim, mustaqil fikrlash, yaratuvchanlik, pedagogika, kognitiv usullar, mulohaza qilish, tadqiqotlar.

Annotation: This article explores skills of critical thinking in students. It examines Different types of discussions, project-based learning and question activities. This article also shows that teachers and a supportive classroom help students improve their thinking abilities. By learning critical thinking, students become independent, develop their creativity and help to solve real-life problems.

Key words: critical thinking, education, independent thinking, creativity, pedagogy, cognitive skills, thinking, analyses.

Аннотация: В данной статье рассматриваются способы развития у учащихся навыков критического мышления. Анализируются различные типы дискуссий, учебные проекты и упражнения на задавание вопросов. Преподаватели и благоприятная учебная среда могут способствовать развитию мышления учащихся. Критическое мышление помогает студентам стать самостоятельными, развить творческие



способности и мотивирует их находить решения различных жизненных проблем.

***Ключевые слова:** критическое мышление, образование, независимое мышление, креативность, педагогика, когнитивные методы, рефлексия, исследование.*

Kirish

Hozirgi kunda ta'lim juda ham tez o'zgarib bormoqda va yodlashning o'zigina talabalarning muvaffaqiyatga erishishi uchun yetarli emas. Hozirda talabalar chuqur va ko'proq o'ylashi, ma'lumotlarni tahlil qilishi va qiyin muammolarga osonroq yechim berishi zarur. Va shu bilan birga fikrlash talabalarga yangi ma'lumotlarni to'liq tushunishga hamda qaror qabul qilishga ham ko'maklashadi.

Tanqidiy fikrlashning muhimligi

Tanqidiy fikrlash juda ham muhim, chunki u talabalarga malumotlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Internetda ko'rgan hamma narsaga ishonish o'rniga, ular malumotlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirishni o'rganadi (Brookfield ,2012). Shuningdek, talabalar malumotlarni bir-biri bilan solishtiradi, undagi xatolarni topadi va to'g'ri javoblarni tanlaydi.

Tanqidiy fikrlash muammolarga yechim topishni ham osonlashtiradi. Masalan, qachonki talabalar qiyin muammolarga duch kelganda, birinchi hamma vairantlarni ko'rib chiqadi va eng yaxshisini tanlaydi (Kuhn,1999). Bu usul ularni o'rganish davomida o'ziga ishongan va ma'suliyatli qila oladi (Halpern,2013).

Tanqidiy fikrni rivojlantirishning usullari

1. Debatlar va muhokamalar: Debatlar talabalarga o'z fikrlarini to'liq va aniq tushuntirib berishga hamda boshqalarni hurmat bilan tinglashga yordam beradi. Ular o'z fikrlarini sabablari bilan keltirib, qo'llab quvvatlashni ham o'rganadi. Tengdoshlari orasida qilingan muzokaralar ularni chuqur va ko'proq o'ylashga undaydi (Kennedy,2007).



2. Loyihaga qaratilgan ta'lim: Loyihalar talabalarga haqiqiy vazifalar ustida mustaqil ishlash imkonini yaratib beradi. Ular reja tuzadi, loyiha bo'yicha izlanadi va malumotlarni bayon etadi. Bu usul esa ularni mustaqil ta'lim olishini yaxshilaydi (Thomas, 2000).

3. So'rovga qaratilgan ta'lim: Bu usul o'rganuvchilar tomonida savollar so'rashga asoslangan. Talabalar izlanishlar davomida savollarga javob topadi va mavzularni o'rganadi. Bu ularga faol va e'tibor bilan fikr yuritishga yordam beradi (Norris & Ennis, 1990).

4. Muammolarni hal qilish faoliyati: Talabalar turli xil yechimlardan eng yaxshisini tanlashni mashq qiladi. Bu ularga aniq va mantiqan fikrlashni o'rgatadi (Jonassen, 2011).

5. Ustozning qo'llab-quvvatlashi: O'qituvchi talabalarga savol berish orqali o'z ta'sirini o'tqazadi. Masalan, "Nega sen bunday fikrdasan?" yoki "Sen buni qanday tushuntirib bera olasan" va hokazo. Bu qo'llab-quvvatlash ularning fikrlashiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi va ular malumotlarini boshqalarga ulashayotgan vaqtda o'ziga ishonch hissini tuyadi (Paul & Elder, 2014). Xonadagi yaxshi muhit o'quvchilarning ko'proq bilim olishida katta rol o'ynaydi (Vygotsky, 1978).

Talabalarga ta'siri

Tanqidiy fikrlash talabalarga darslarni yaxshi tushunishga ham yordam beradi. Ular malumotlarni uzoq muddat eslab qoladi, chunki ular o'rganish davomida malumotlarni shunchaki eslab qolmasdan tahlil ham qiladi (Facione, 2011). Va shu bilan birga o'rganuvchilar har doim ustozlarining yordamlarini kutishmaydi hamda mustaqil ishlay olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Kundalik hayotda tanqidiy fikrlash o'quvchilarga internetdagi malumotlarni tekshirishni va yolg'on malumotlardan saqlanishni o'rgatadi. Ular yanada ishonchli, ijodiy va kelajakdagi har qanday qiyinchiliklar va o'zgarishlarga tayyor bo'lib ulg'ayadi.



Xulosa

Zamonaviy o'quvchilar uchun tanqidiy fikrlash muhim usul hisoblanadi. Ular jamoa bo'lib ishlashni ham o'rganadi. Jamoa bo'lib ishlash qobiliyati o'qish jarayonlari uchun ham, kelajakdagi ishlar uchun ham foydalidir. Ustozlar bu usullarni rivojlantirish uchun o'quvchilar o'rtasida turli xil bahslar va turli mavzularga oid loyiha ishlarini qo'llashlari mumkin. Muntazam olib borilgan amaliyotlar natijasida ular hayotda katta yutuq va muvaffaqiyatlarga erishadi (Facione, 2011).

Umuman olganda, yoshlar o'rtasida tanqidiy fikrni muntazam mashq qilish ularni hayot qiyinchiliklariga tayyorlaydi. Ular hayotdagi har qanday o'zgarishlarga moslasha oladi, kutilmaganda yuzaga kelgan muammolarga osonlik bilan yechim topa oladi va ishonch bilan qaror qabul qila oladi. Bu amaliyotlar ularga maktab, litsey yoki universitetdan tashqari muvaffaqiyatga erishish uchun mustahkam poydevor bo'ladi (Marzano, 2007).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brookfield, S. D. (2012). *Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions*. Jossey-Bass.
2. Facione, P. A. (2011). *Critical Thinking: What It Is and Why It Counts*. Measured Reasons.
3. Halpern, D. F. (2013). *Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking* (5th ed.). Psychology Press.
4. Jonassen, D. H. (2011). *Learning to Solve Complex Scientific Problems*. Routledge.
5. Kennedy, R. (2007). In-class debates: Fertile ground for active learning and critical thinking. *International Journal of Teaching and Learning in Higher Education*, 19(2), 183–190.
6. Kuhn, D. (1999). A developmental model of critical thinking. *Educational Researcher*, 28(2), 16–25.



7. Lipman, M. (2003). *Thinking in Education* (2nd ed.). Cambridge University Press.
8. Marzano, R. J. (2007). *The Art and Science of Teaching: A Comprehensive Framework for Effective Instruction*. ASCD.
9. Norris, S. P., & Ennis, R. H. (1990). *Evaluating Critical Thinking*. Midwest Publications.
10. Thomas, J. W. (2000). *A Review of Research on Project-Based Learning*. Autodesk Foundation.
11. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
12. Paul, R., & Elder, L. (2014). *Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life*. Pearson.